

O'QUVCHILAR EKOLOGIK ONGINI YUKSALTIRISHDA EKOLOGIK TARBİYANING USTUVORLIGI

Azamova Sitora Ayonovna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrası, f.f.f.d (PhD)

ПРИОРИТЕТ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ В ПОВЫШЕНИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО СОЗНАНИЯ УЧАЩИХСЯ

Азамова Ситора Айоновна

*Шахрисабзский государственный педагогический институт,
кафедра «Общественные науки», (PhD)*

THE PRIORITY OF ENVIRONMENTAL EDUCATION IS TO RAISE STUDENTS' ENVIRONMENTAL AWARENESS

Azamova Sitora Ayonovna

*Shakhrisabz State Pedagogical Institute, Department of "Social Sciences"
(PhD)*



Tel: +99897 240 96
98

E-mail:
[azamovasitora04@
gmail.com](mailto:azamovasitora04@gmail.com)

Orcid: 0009-0000-
3663-4441

Annotatsiya: Maqolada uzluksiz milliy tarbiya tizimida o'quvchilar ekologik ongini yuksaltirishda ekologik tarbiyaning ustuvorligi dolzarb muammo ekanligi haqida fikr bildirilgan. Ekologik madaniyat jamiyatni saqlash va rivojlantirishga hissa qo'shadigan umuminsoniy madaniyatning muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. Kishilarning ekologik bilimlari ularning ekologik madaniyatlaridan dalolat beradi.

Kalit so'zlar: ekologiya, tarbiya, globallashuv, madaniyat, ekologik madaniyat, ong, ekologik ong, qadriyat, ekologik shaxs, komil inson.

Аннотация: В статье высказывается мнение, что приоритет экологического образования в повышении экологического сознания учащихся в системе непрерывного отечественного образования является актуальной проблемой. Экологическая культура является важным показателем общечеловеческой культуры, способствующей сохранению и развитию общества. Экологические знания людей свидетельствуют об их экологической культуре.

Ключевые слова: экология, образование, глобализация, культура, экологическая культура, сознание, экологическое сознание, ценности, экологическая личность, совершенный человек.

Annotation: The article expresses the opinion that the priority of environmental education in increasing the environmental awareness of students in the system of continuous national education is an urgent problem. Ecological culture is an important indicator of universal culture, contributing to the preservation and development of society. People's ecological knowledge attests to their ecological culture.

Key words: ecology, education, globalization, culture, ecological culture, consciousness, ecological consciousness, values, ecological personality, perfect man.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

Umumta'lim maktablari o'quvchilarining ekologik madaniyatini shakllantirish ekologik tarbiyani samarali yo'lga qo'yish orqali amalga oshadi. Ekologik tarbiya – ekologik ta'limning asosini tashkil etadi va uni amalga oshirishdan boshlanadi. "Ekologik shaxs" mana shu ekologik ta'lim va tarbiya natijasida shakllanadi hamda mamlakat

barqaror ekologik taraqqiyotini belgilab beradi. Shu sababli har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta'lim va tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim. Bu esa ta'lim va

tarbiya ishini uyg'un holda olib borishni talab etadi. Chunki, ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi. Ekologik tarbiya yil sayin tobora dolzarblashib bormoqda. U tarbiyaning boshqa shakllari bilan uyg'un tarzda rivojlantirilib borilishi kerak. Aynan shuning uchun ham ekologik tarbiyaning mazmunini chuqurroq anglab olish uchun uni tarbiya tizimi kontekstida, uning turli shakllari bilan o'zaro aloqadorlikda tahlil qilmoq kerak. Ekologik tarbiyaning tarbiya tizimidan ayri holda talqin etilishi mazkur fenomen haqida ilmiy tasavvurlar hosil qilishga xalal beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Tarbiya masalalari bilan shug'ullangan barcha mutaxassislar uning turli shakllari mavjudligini qayd qiladilar. Biroq, odatda, bunda tarbiyaning o'z mazmuniga ko'ra turli shakllarga bo'linishi nazarda tutiladi, xolos. Aytaylik, tarbiya mazmunan aqliy, mehnat, jismoniy, axloqiy, huquqiy, vatanparvarlik, iqtisodiy va shu kabi shakllarda amalga oshirilishi mumkin. Shuning bilan bir qatorda, unutmazlik zarurki, tarbiya nafaqat o'z mazmuniga ko'ra, balki institutsional belgilari, tamoyillariga ko'ra ham turli shakllarga ega. Tarbiya masalalari odatda pedagoglar tomonidan puxta o'rganiladi. Biroq, bunda masalaning bir jihati e'tibordan chetda qolib ketadi. Pedagoglar o'z faoliyatlari ta'lim muassasalari bilan bog'liq bo'lgani bois ko'proq bolalar, o'smirlar va yoshlar tarbiyasi xususida bosh qotiradilar. Vaholanki, masalaga ijtimoiy-falsafiy yondashsak, tarbiya insonning butun umri mobaynida davom etadigan jarayondir. Shu boisdan tarbiya masalalarining pedagogik nuqtai nazardan tadqiq etilishi qay darajada muhim bo'lsa, uning ijtimoiy-falsafiy talqini ham shu qadar ahamiyatlidir.

Ekologik tarbiyaning boshlang'ich nuqtasi oila bo'lsa, uni rivojlantirish maskani umumta'lim maktablaridir. Umumta'lim maktablarida ekologik tarbiya berish har tomonlama qamrab olinadi. O'quvchilar bo'sh qolishiga yo'l qo'yilmaydi. Zero, umumta'lim maktablarida ta'lim va tarbiyani rivojlantirish mamlakatimiz ta'lim siyosatining bosh maqsadiga aylangan. Shunga ko'ra, *ekologik tarbiya o'z mazmuniga ko'ra tarbiyaning o'ziga xos shakli bo'lib, shaxs ekologik ongini yuksaltirish, ekologik faoliyatini takomillashtirish maqsadida amalga oshiriladigan maqsadga muvofiq tarbiyaviy*

jarayondir[3]. U turli subyektlar tomonidan olib borilishi mumkin. Ta'rifdan ko'rinib turibdiki, ekologik tarbiyaning asosiy maqsadi shaxsning ekologik ongini shakllantirish va yuksaltirish, uni oqilona ekologik faoliyat yuritishga odatlantirishdan iborat. Uning yo'nalishlari va vazifalari ana shu maqsaddan kelib chiqadi, uslublari va usullari esa unga muvofiq ravishda umumta'lim maktablariga xos ravishda tanlanadi. Jumladan, umumta'lim maktablarida maqsadga mos tarzda, ekologik tarbiya ikki asosiy yo'nalishda (o'quvchilar ekologik ongini yuksaltirish; o'quvchilar ekologik faoliyatini takomillashtirish) amalga oshiriladi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Shaxs ekologik madaniyatini shakllantirishda umumta'lim maktablari shaxs tafakkurini harakatlantiruvchi mexanizm vazifasini o'taydi. Maktab shaxs kamolotining mustahkam poydevori bo'lib, mamlakatimiz umumta'lim maktablarida tarbiya tizimini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Respublikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev "Maktab ta'limini rivojlantirish biz uchun umummilliy maqsadga, umumxalq harakatiga aylanishi zarur" nomli videosektor yig'ilishida xalq ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha yettita muhim masalani kun tartibiga qo'ygan edi. Unda, "tarbiya masalasida 20 – 30 yil oldinni ko'zlab ish olib borishimiz kerak. Ya'ni, kelgusida hayot bizning oldimizga qanday o'tkir va keskin talablarni qo'yadi, qanday dolzarb muammolar yo'limizda paydo bo'lishi mumkin? Ularni bartaraf etish uchun bizga qanday kadrlar kerak bo'lishi haqida hozirdan o'ylashimiz zarur", degan edi.

NATIJARLAR (РЕЗУЛЬТАТЫ/RESULTS). Yuqoridagi institutsional yondoshuv tizimidan kelib chiqib, ekologik tarbiyaning turli shakl va uslubda amalga oshirilsa, yanada samarali bo'ladi. Tarbiya obyektining xususiyatlari yangilangani sayin bu shakl va uslublar ham o'zgara boradi. Masalan, oilada, maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim (1–4, 5–11-sinflardagi ta'lim), maktabdan keyingi tarbiya bir-biridan farq qiladi [5]. Ammo, insonning qabul qilish va o'rganganlarini mustahkam saqlab qolish poydevori tug'ilganidan maktabni tamomlagunga qadar bo'lgan davridir. To'g'ri, inson hayoti davomida o'zgarib madaniylashuvchi mavjudot. Lekin insonning umri davomida juda ko'p saqlanib qoluvchi xarakteri mustaqil hayotga qadam qo'ygunga qadar davri bo'lib, hayotining oxiriga

qadar o'z ta'sirini o'tkazib turadi. Shu sababli xalqimiz "Bola boshidan", "Bo'larmonning bolasi o'n beshida bosh bo'lar, bo'lmaydiganning bolasi qirq yoshida yosh bo'lar,[6] "Yoshlikda olingan bilim – toshga o'yilgan naqshdir" degan va boshqa uyqash maqollarning zamiridagi tarbiyaga alohida e'tibor qaratib kelgan. Tarbiyaning bu uslubi bir necha ming yillardan beri o'z ta'sirini yo'qotmagan. Ota-bobolarimiz erishgan marralarni osongina boy berib qo'yamiz"[2]. *Bu fikrlar zamirida ekologik madaniyatda ham ergashtiruvchi bo'lmog'imiz aks etadi. Zero, farzandlarimiz tabiatni tabiat uchun emas, balki inson uchun, uning kelajagi va ravnaqi uchun asrashini tushunib yetmoqlari lozim bo'ladi.*

Ekologik tarbiya jarayonida ham diniy qadriyatlardan foydalanish umumta'lim maktablari o'quvchilarida ekologik tafakkurni oshirishga yordam beradi. Diniy qadriyatlarning ustuvor jihatlaridan biri ommaning ilmiylikka emas, ko'proq diniylikka intilishidadir. Mustaqillikdan keyin diniy va milliy qadriyatlarning qayta tiklanishi xalqimizning islomiy e'tiqodlarini mustahkamlashga sharoit yaratdi. Diniy qadriyatlar va tarbiya jarayoni, bir tomondan, o'quvchilarning diniy dunyoqarashini, ikkinchi tomondan, ularning ekologik tafakkurini, uchinchi tomondan, diniylik va dunyoviylikning asl mohiyatini anglab yetishiga zamin hozirlaydi.

Qur'oni karim va Hadisi sharifda tabiatga munosabatning diniy normalari, ekologik munosabatlarga oid qoidalar berilgan. Masalan, "An'om" surasida: "Isrof qilmangiz! Albatta, U isrof qilguvchilarni sevmaydi" deb, qayd etilgan. Shuningdek, "Baqara" surasida: "Osmonlar va Yerdagi bor narsa Allohnikidir. Ichingizdagi narsani oshkora qilsangiz yoki yashirsangiz ham Alloh sizlarni u bilan hisob-kitob qilur" deyilgan [7]. Barcha narsalar yaratgan zotga tegishli ekan, inson ham unikidir. Ammo, barcha narsalar inson uchun, uning manfaati uchun berilgan. Shunday ekan, barcha narsalarni asrab-avaylash ham insonning o'ziga berilganligi nazarda tutilgan.

"Komil inson" faoliyati universal xarakter kasb etib, o'zining ilmiy-nazariy, siyosiy-huquqiy, diniy va boshqa faoliyatini ekologiyalashtirishga ham yo'naltirgan bo'ladi,[8] degan g'oyalarni o'quvchilar ongiga singdirib borish zarur. Bu tarbiyaning ta'sirchan mexanizmini tashkil etadi. Umume'tirof etilgan zamonaviy qadriyatlardan foydalanish O'zbekiston ta'lim muassasalarining asosiy ta'lim shakli hisoblanadi. Umumta'lim

maktablarida ta'lim tizimi zamonaviylashgan va xalqaro standartlarga moslashtirilmoqda. Butun uzluksiz ta'lim tizimini huquqiy tartibga solishga qaratilgan yaxlit "Ta'lim kodeksi"ni ishlab chiqish[1] ustida ish olib borilmoqda. Chunki, ekologik madaniyatni shakllantirishda tabiiy fanlar bilan birgalikda ijtimoiy fanlarning roli va o'rni ham beqiyos. Inson ma'naviy tafakkuri ko'proq ijtimoiy fanlarning ta'sirida kechadi. Shu bois, ekologik xavfning ijtimoiy mohiyatini singdirish ijtimoiy fanlarning dolzarb vazifasiga aylangan. Biz davlat va jamiyat manfaatlari yo'lida halol mehnat qilgan, bu borada barcha ijtimoiy chaqiriq va da'vatlarga "labbay" deb javob bergan ota-onalar avlodi ta'sirida tarbiyalandik. Ularning bunday avlod bo'lishida ijtimoiy fanlar tizimining o'rni va ahamiyati katta bo'lgani barchamizga ma'lum[1].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).

O'zbekistonda umumta'lim maktablarini to'liq zamonaviylashtirishda ba'zi muammolar ham yo'q emas. Zamonaviylashgan maktablar, avvalo, bir smenali bo'lishi shart. O'quvchilar shunchaki bir smenada sinf mashg'ulotlarini o'tib qaytishi emas, aksincha uyga vazifalar va qo'shimcha mashg'ulotlarning ma'lum qismini bajarishi hamda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda ishtirok etishi ham ta'minlanishi zarur. O'shandagina o'quvchilarga tarbiya uslubi samarali ta'sir etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

(ИСПОЛЬЗОВААННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – T.: "O'zbekiston", 2022. – B.240.
2. Mirziyoyev Sh. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – T.: O'zbekiston, 2020. – B.151.
3. Omonov B. Ekologik globallashtirish va uning O'zbekiston ekologik siyosatiga ta'siri. F.f.f.d. diss. avtoref. – Samarqand, SamDU. 2022.
4. O'zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2005.
5. Qur'oni karim va o'zbek tilidagi ma'nolarining tarjimai – T: "Hilol-nashr", 2021. – 620 b.
6. Omonov B. Postmodern jamiyatda ekologik tarbiya zaruriyatining kuchayishi// Postmodern jamiyat va inson muammosi// Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi. Qarshi. 2015. – B.29.